



UO‘K 624.042.7:6999.841

MONOLOGIK NUTQDA BOG‘LOVCHILARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI
ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СУБЪЕКТОВ В МОНОЛОГИЧЕСКОЙ РЕЧИ
PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF CONJUNCTIONS IN MONOLOGICAL SPEECH

Usmonov Aslam Karshiboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)

ORCID:0000-0002-1717-3034

Annotatsiya

Maqolada bog‘lovchilarning pragmatik xususiyatlari yoritilgan. Bog‘lovchilarning pragmatik xususiyatlari namoyon bo‘lishida monologik nutqning o‘rni muhim omil sifatida belgilangan va monologik nutqda bog‘lovchilarning pragmatik xususiyatlari namoyon bo‘lishi misollar orqali asoslangan.

Аннотация

В статье описаны прагматические особенности связок. Определяется роль монологической речи как важного фактора проявления прагматических особенностей союзов, а также на примерах обосновывается отсутствие прагматических особенностей союзов в монологической речи.

Abstract

The article describes the pragmatic features of connectives. The role of monologue speech is determined as an important factor in the manifestation of pragmatic features of complex sentences, and the absence of pragmatic features of complex sentences in monologue speech is substantiated using examples.

Kalit so‘zlar: bog‘lovchi, monologik nutq, **lisoniy xususiyat**, pragmatika, nutqiy akt, yashirin mazmun.

Ключевые слова: связка, монологическая речь, языковой признак, прагматика, речевой акт, скрытое содержание.

Key words: connective, monologue speech, linguistic feature, pragmatics, speech act, hidden content.

KIRISH

Muloqotning til birliklarining shakllanishiga ko‘ra og‘zaki va yozma muloqot turlariga bo‘linadi. Bog‘lovchilarning bu muloqot turlarida ishtiroki bir xilda emas. Chunki, yozma muloqotda ishlatilgan faol bog‘lovchilar har doim ham og‘zaki muloqotda ishlatilmaydi yoki aksincha. Muloqotning bunday turlarini yuzaga keltirishda albatta o‘ziga xos “shart”lari bor. Og‘zaki muloqotning xususiyatlari, elementlari, turlari, afzalliklari quyidagilarda ko‘rinadi: og‘zaki muloqot jonli so‘zlashuvni vujudga keltiradigan ikki yoki undan ortiq odam o‘rtasida xabar uzatiladigan o‘zaro ta’sir turi. Monologik nutq – so‘zlovchining o‘ziga qaratilgan, boshqa shaxsni tinglash va javob berishini e’tiborda tutmaydigan nutq shakli. Ayrim dramatik asarlarda personajning monologik nutqi tomoshabinga qaratilgan bo‘ladi. Monologik nutq nasriy asarlarda ham bor. Nazmda esa asosiy nutq shakllaridan biri hisoblanadi. Ba’zan monologik nutqda asarning kulminatsion nuqtasi bayon etiladi. Monologik nutq uchun, odatda, tuzilish va mazmun jihatdan o‘zaro bog‘liq, o‘ziga xos kompozitsion qurilishga va mantiqiy tugallikka ega bo‘lgan matnning ma’lum bo‘lagiga xos bo‘ladi.[1]

Adabiyotshunoslikda badiiy asar tiliga qo‘yiladigan talablardan biri sifatida nutqning differentsiyalanganligiga alohida e’tibor qaratiladi: “Badiiy asar tili haqida gap borganda uning yana bir jihati – differentsiyalangan (ya’ni, farqlangan)ligiga alohida to‘xtalish zarur. Albatta, biz “badiiy asar tili” deganimiz holda, aslida gap badiiy nutq haqida borayotgani ma’lum, chunki til unsurlari ma’lum kontekstni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi. Badiiy nutqning farqlanganligi shuki, unda muallif nutqi va qahramonlar nutqi ajratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Badiiy asar matnida muallif nutqi va qahramonlar nutqi farqlanadi. Qahramonlar nutqi ichki yoki tashqi, dialogik yoki monologik nutq ko'rinishlarida bo'ladi. Muallif nutqi badiiy asar tilining muhim qismi hisoblanadi. Unda qahramonlarga, voqelikka nisbatan yozuvchi munosabati ifodalangan bo'ladi. Muallif nutqi ikki xilda ifodalanadi:

1. Muallif-hikoyachi nutqi;
2. Qahramon-hikoyachi nutqi.

Monologlar tarkibidagi qismlar miqdori va mazmuniy izchilligiga ko'ra mikromatnga teng ifoda shakli hisoblanadi. Masalan: *“Alamdan holi bo'lmoq uchun xayolini chalg'itishga urindi. Qo'lini bolish qilib, chalqancha yotganicha o'y o'yladi: “Uyimga xabar bergani kim borgan ekan? Har holda “eng kichik ilmiy xodim”ni yugurtirishadi. U bechoragina bo'ynini qisib turib ming'irlaydi. Nima deydi? “Ishda birdan kasallari tutib qoldi”, dermikin yo... ha, “ustozlarining o'limidan qattiq qayg'urdilar” der. Shunday degani durust, shunisi sal obro'liroq. “Bir oz dam olsin, davolansin, deb kasalxonaga (“jinnixonaga” demaydi) joylashtirishdi” deydi.* (Tohir Malik).

Ichki monologda qahramon nutqi bilan muallif nutqi birga kelganda, mikromatnning mazmuniy aspekti birmuncha murakkablashadi. Bunday murakkablashgan mazmunni yuzaga chiqarish ba'zan bog'lovchilarga yuklanadi. Masalan: *“Hosilboyvacha uchun xom xayol emas, tayyor pishirilgan osh edi. Suzib yesa, bas... Biroq... pishgan oshni yeyish hammaga ham nasib etavermaydi”.*

Ichki monologda ham ishtirok etgan bog'lovchilar gap mazmunini murakkablashtirib yashirin presuppozitsiyaga ishora qilishi orqali pragmatik ma'noni yuzaga keltiradi. Masalan: *“Aslida u yurakni siqayotgan iskanja azobidan bir damgina bo'lsa ham qutularman, degan niyatda dahlizga chiqqan edi. Avvalgi jinnixonada aynan shunday bo'lardi. “Bu yer nima o'zi – jinnixonami yo qamoqxonami?” deb o'yladi u.* (Tohir Malik).

Shunga ko'ra yozuvchilar qahramonlarning talaffuz tarzini ham individuallashtirishda maxsus ifodalarga ko'p murojaat qiladilar. Tohir Malikning *“Shaytanat”* asarining qahramoni Anvar tilidan aytilgan quyidagi she'r²⁵da ana shunday bog'lovchilar qo'llangan.

Bahorda gurkirab avj olgan chechak,
So'lar xoh istama, xohi sen ista.
Unga yor **na** o'tmish, **na-da** kelajak,
Tuproqqa jo bo'lib ketar ohista.
Shuning-chun so'nggi bor kuylaydi qumri
Bilmam ne marsiya, bilmam ne vola.
Hey, mening umrimdir chaqmoqning umri
Bir chaqnaq mahv bo'lsam chekmagin nola!

Misoldan ko'rinib turganidek, qahramonning talaffuziga xos xarakterli belgilar bog'lovchilar orqali alohida ta'kidlangan. Bundan qahramonni o'z tabiatiga mos tarzda, og'zaki nutq talablariga ko'ra “gapirtirish”, qahramon xarakterini belgilovchi nutqiy birliklarni alohida ajratib ko'rsatish kabi maqsadlar ko'zlanganligini sezish qiyin emas.

Bog'lovchilar matnda muallifning illokutiv niyatini yuzaga chiqarish bilan bog'liq turli xil pragmatik mazmunlarni ifoda etadi. Asosiy vazifadan tashqari o'z zimmasiga emotsional-ekspressivlik ma'no ifodalash yukini ham oladi. Ana shu pragmatik xususiyat ularning ikkilamchi vazifasi birlamchi vazifasidan sira kam emasligini tasdiqlaydi.[2.213-b.] Bog'lovchilarning bunday vazifasini Anvar Obidjon qalamiga mansub quyidagi she'rda ham ko'rish mumkin:

Navoiyga o'xshash-chun
Patdan qalam yo'ndirdim.
Chopon kiydim sal uzun,
Boshga salla qo'ndirdim.
Sotib oldim bir juft sham,
Vazirbop par yostiqcha...
Yendi faqat talant kam
Va... xotin ham ortiqcha. (Anvar Obidjon, 1974-yil.)

²⁵ She'r monologik nutq shaklida

TILSHUNOSLIK

Mazkur she'r matnida va teng bog'lovchisi ishtirok yetib ikkita sodda gapni bog'lash vazifasini bajarmoqda. E'tibor berib qarajak, va bog'lovchisi orqali Navoiyning uylanmaganligi, uning xotini bo'lmaganligi haqdagi fikr ham aytilgan bo'lishi mumkinligini kuzatamiz. Bu nutq vaziyatida namoyon bo'ladi. Buni biz bog'lovchilarning lingvopragmatika jihatini ochib berayotganimizda tushunamiz.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Gaplarning pragmatikasini o'rganish tilshunoslikning muhim ahamiyatga ega, chunki tilni bilish nafaqat jumlar qurish qobiliyatini (lingvistik kompetensiyani), balki kerakli kommunikativ natijaga erishish uchun nutq harakatlarida ulardan to'g'ri foydalanish qobiliyatini ham nazarda tutadi.[3]

So'zlovchi va tinglovchining pozitsiyasiga ko'ra: dialogik va monologik muloqot turlariga bo'linadi. Keyingi vaqtlarda muloqotning bu singari turlarini ham o'rganishga va unda ishtirok etayotgan til birliklarining stilistik, pragmatik va lingvokulturalogik jihatdan tadqiq qilishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

Dialogik va monologik muloqot jarayonida bog'lovchilar ham so'zlovchining turli mazmundagi ichki niyatlari reallashadi, turli mazmundagi nutqiy aktlar yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Shuni inobatga olib, bog'lovchilarning muloqotni bu turlarida qanday nutqiy akti yuzaga keltirayotganini tahlilga tortamiz. Ammo bog'lovchisi dialogda iqror nutqiy aktini yuzaga keltirishi mumkin. Masalan:

— *Suvdan shunchalik qo'rqasanmi? — dedi kimdir. Kimdir... kim aytdi bu gapni? Nazarida baliq aytganday bo'ldi.*

— *Suzishni bilmayman, — deb o'zini oqladi.*

— *Suzishni bilmasang bu teskari daryoga nima uchun kelding?*

— *Chanqadim.*

— *Sen bu daryolardan suv icha olmaysan. Qochma. Tashnalikdan o'lgandan ko'ra suvga bo'kib o'lganing yaxshi emasmi?*

— *Ahmoq! Sen o'zingni o'yla!*

— *Men suzishni bilaman. Ammo shu suvda o'laman...*

Yana shuni aytib o'tish kerakki, bu o'rinda ammo zidlov bog'lovchisi gap mazmunini murakkablashtirib yashirin presuppozitsiyaga ishora qilgan.

“Suzishni bilish suvda o'lmaslikni kafolati emas”, “suzishni bilmaganim uchun suvda o'laman deb o'ylayapsan, men suzishni bilsam ham suvda o'laman.” ya'nikim, baliq suzishni bilsa ham suvda o'lishi aniqligiga ishora mavjud.

Mazmuniy sintaksisga bag'ishlangan ishlarida «tashqi signallar» nomi bilan yashirin ma'noga ishora qiluvchi yordamchi so'zlar haqida ma'lumotlar berilganligi ma'lum. Til ilmining pragmatika sohasiga e'tibor ortishi bilan bir qator tilshunoslar, jumladan, M.Hakimov, D.Lutfullayeva, U.Rahimov, A.Pardayev, Z.Burxonov, D.Boymatova, A.Usmunov kabilarning ilmiy ishlarida shu sohaning o'rganish obyekti bo'lgan yashirin ma'no – presuppozitsiya, tagma'no masalalariga bir necha bor e'tibor qaratilganining guvohi bo'lamiz. Yashirin ma'no – presuppozitsiya, shu uchun muhimki, pragmatik hodisa sifatida til birliklarining nutq bilan bog'liq jihatlarini namoyish qiladi.

— *Xulosa chiqarishga shoshilmanglar, — dedi Soliyev o'ychan tarzda. — O'ldirilgan odam kim? Nima uchun uning murdasini bir necha kun saqlab turib, so'ng osib, so'ng namoyishkorona yoqib yuborishgan? Bu — oldingi o'limga javobmi? Endi Jamshidning mashinasi... Ular kimnidir, balki bizni Jamshidning o'lganiga ishontirishmoqchi bo'lishganmi? Yoki...*

Bu o'rinda yoki... bog'lovchisi orqali “qotil Jamshid demoqchimi” yashirin presuppozitsiya ishora bor.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Rasmiy muloqot jarayonida so'zlovchining fikriga tinglovchi qoliplashgan “birliklar” yordamida javob qaytaradi. Til egalarining voqelik haqidagi umumiy bilimlari bunday “birliklar”ni (harbiylar nutqida: erkin, xuddi shunday, qadam bos shu kabilar) qanday yashirin ma'no anglatayotganini tushunadi, albatta. Ma'lumki, propozitsiya turli darajadagi sintaktik struktura orqali ifodalanadi: gap orqali, obrotlar orqali, hatto sodda gap tarkibidagi ayrim so'zlar va grammatik shakllar ham alohida propozitsiya ifodalab, shu sodda gapni mazmunan murakkablashtirishi mumkin. Mazkur holatda ayrim so'z yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya o'zining eng ixcham shakliga ega bo'ladi. So'zlovchi va tinglovchi uchun

uning tushunarli bo'lishida presuppozitsiya yordamga keladi.[4.7-b.] Masalan: “– Jangarini ko'rayapsanmi?

- **Xuddi shunday!** (ko'ryapman ma'zmunida)
- Nishonga ol.
- Tushunarli.
- O'rtoq leytenant jangarini nishonga oldim.

–Qani azamat, **mahoratingni ko'rsat, lekin** ehtiyot bo'l, bu yer mashq maydoni emas”. (“Sardor 2” kino filmidan)

Ushbu kontekstda leytenantning buyrug'iga askarning “**xuddi shunday**” javobi “ko'ryapman” degan ma'noda qo'llanmoqda. Va askarning ko'rayotganligini tushungan leytenant navbatdagi buyruq (nishonga ol)ni bermoqda. Muloqot davom etib, askar nishonga olganligini aytadi. Leytenant “Qani, azamat, **mahoratingni ko'rsat**” buyrug'i orqali bevosita “mahorating bor” propozitsiyasi ifodalangan.

Lekin propozitsiyaning ma'zmoni murakkablashib “nishonni yo'q qil”, “jangariga o'q uz” kabi yashirin, pragmatik qiymatga ega, mazmunni ifodalamoqda. Bu muloqot jarayonida zidlov bog'lovchisi *lekin* ham so'zlovchi niyati bilan bog'liq presuppozitsiyaga ishora qilmoqda. So'zlovchining (leytenant) birinchi buyruq ma'zmondagi sodda gapi tugab, *lekin* zidlov bog'lovchisi bilan boshlangan sodda gap orqali askarni ogohlantirmoqda.

Nutqiy gaplar tarkibidagi birliklarning shakl va uning mazmunnidagi bunday “so'z o'yinlar” pragmatik tizimda oydillashadi. Monologik muloqotga oid mazmun va lisoniy shakl munosabati masalasi pragmatik tadqiqotlarning dolzarb mavzularini belgilab berishi shubhasiz. Pragmatikaning substantsional - formal tilshunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlar bilan bog'lanishi, birinchidan, lisoniy birliklar mazmun-mohiyatini yanada batafsil yoritish imkonini bersa, ikkinchidan, formal tilshunoslikka «jon», harakat baxsh etadi. [5:265-bet].

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Muloqot tizimi tarkibidagi lingvistik birliklar tom ma'noda butun bo'lib tuyulishi mumkin. Bu izchillik ma'lum darajada o'z-o'zini oqlaydi. Lekin bu birliklar semantik jihatdan yashirin mazmun yoki maqsadlarni ifoda etishi orqali muayyan pragmatik xususiyatni yuzaga chiqarishni ta'minlaydi. Masalan:

“Oyijon, urushmang! Meni so'zlarimni siz tinglang, eshiting. O'g'lingiz dardin... Men uchun dunyoda, albatta, sizdan yaqinroq inson yo'q. *Lekin* bir qizcha... U judayam yosh, oyijon! Yoshlarча beboш u, oyijon. Qoshi qalam qosh, oyijon! Men uni sevaman, oyijon”.

Ba'zan monologik muloqotda til birliklarini tanlash borasida rasmiy muloqotdan tubdan farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan nutqda (diskurs ma'nosida), muloqot jarayonida lisoniy va nolisoniy birliklar vositasida axborot berishdan tashqari, turli xil situatsion ma'no hamda emotsional-ekspressivlik ham ifodalanmoqda.

Keltirilgan nutqiy parcha o'g'ilning oyisiga murojaati shaklidagi oddiy norasmiy muloqot. So'zlovchi tinglovchi (oyisi)ga murojaat qilar ekan so'zlarini tinglashni aytadi. Eng e'tiborli tomoni shundaki, mazkur muloqotda *lekin* bog'lovchisi “o'xshatish” yashirin ma'zmoni yuzaga chiqaruvchi asos vazifasini bajarmoqda. Nazarda tutilgan nutqiy gaplarda “dunyoda menga eng yaqin inson sizziz, bir qizchi menga sizday yaqin” mazmuni ifodalangan. Bog'lovchilarning muloqotda bunday pragmatik ma'noni yuzaga keltirishi so'zlovchining kommunikativ niyatiga ham bog'liq bo'ladi.

Yo, yoki, yo.., yo .., ayiruv bog'lovchilari norasmiy muloqotda ham faol ishlatiladigan bog'lovchilar hisoblanadi. *Yo, yoki, yo.., yo...* bog'lovchilarining grammatik xususiyati haqida yana shuni aytish mumkinki, bu bog'lovchilar uyushiq bo'laklardan va gaplardan birini tasdiqlab, ikkinchisini esa inkor etib bog'lashi mumkin. Bu me'yoriy holat sanaladi.

Masalan: “Suzmoqdami *yo* chopmoqda, Suv tagidan ne topmoqda?” (Mirtemir); “Aslida, dunyoda tanho nima bor, Paxta o'smaydimi o'zga elda ... yo?... Yoki quyoshimi sevgimga sabab? Axir, quyoshli-ku butun Osiyo”. (A.Oripov).

Lekin shunday nutqiy vaziyatlar bo'ladiki, *yoki* bog'lovchisi asosiy grammatik ma'nasiga qo'shimcha nutqiy (situativ) ma'nolarni ham yuzaga keltiradi. Masalan: Hozir yoki hech qachon. Mazmunan ushbu jumlada *faqat hozir* ma'nosi anglashiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/monologik-nutq-uz/>
2. Пардаев А. Ўзбек тилида ёрдамчи сўз туркумларнинг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент:Фан , 2013. – Б.213.
3. <https://mmmspb.ru/uz/znachenie-kommunikativnoe-namerenie-intenciya-znachenie-kommunikativnoe-namerenie-intenciya-vspom/>
4. Каримова Ферузахон Сайфуддиновна Ўзбек тилидаги диалогик нутқнинг лингвопрагматик хусусиятлари (phd) Тошкент – 2021 5-б. (Karimova Feruzakhon Saifuddinovna Linguopragmatic features of dialogic speech in Uzbek (PhD) author Tashkent - 2021 page 5)
5. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008 265-б. (Safarov Sh. Pragmalinguistics. Tashkent, National Encyclopedia of Uzbekistan, 2008 p. 265.)
6. <https://turcomat.org/index.php/turkbilmat/article/view/5757>
7. Karshiboyevich, U. A., & Baxtiyarovna, U. U. (2022). Nutqiy muloqot jarayinida bog'lovchilarning pragmatik xususiyatlari namoyon bo 'lishi. ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali, 189-193.